

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel dagi
31/1 - sonli qaroriga

ILOVA

Yuridik departamenti Korporativ huquqiy
ta’minlash va metodologiya boshqarmasida

2026-yil “30” iyun da
212 - son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Kuzatuv kengashining
2026-yil “20” may dagi
15 - sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashining
Strategiya qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom**

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashining Strategiya qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom (keyingi o‘rinlarda – “Nizom”) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonunlarga, “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom” (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel), “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida Nizom” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3254-raqam bilan ro‘yxatga olingan), “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “bank”) Ustaviga va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi to‘g‘risida Nizom” hamda boshqa normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom bankning Kuzatuv kengashi Strategiya qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – “Qo‘mita”)ning huquqiy maqomini, uning tarkibini, vakolatlarini va faoliyat yuritish tartibini belgilaydi.

2. Qo‘mita bank Kuzatuv kengashining qarori bilan bankning biznes-profilini, bank operatsiyalarining bank strategiyasi va biznes-rejasiga muvofiqligini ko‘rib chiqish va Kuzatuv kengashi uchun tavsiyalar tayyorlash maqsadida tuziladi. Qo‘mita Kuzatuv kengashining doimiy faoliyat yurituvchi ishchi organi hisoblanadi.

3. Qo‘mita o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilikka, bank Ustaviga va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar, atamalar va qisqartmalardan foydalanilgan:

ESG (Environmental, Social, and Governance) strategiyasi – bu bankning faoliyatida atrof-muhit, ijtimoiy masalalar va korporativ boshqaruv tamoyillarini hisobga olgan holda ishlash rejasini hisoblanadi;

Yillik barqarorlik Barqaror rivojlanish (Sustainability) / ESG hisoboti – bu bankning yil davomida atrof-muhit, ijtimoiy masalalar va korporativ boshqaruv bo‘yicha amalga oshirgan ishlari hisoboti.

II. Qo‘mitaning tarkibi

5. Qo‘mita Kuzatuv kengashi a‘zolari tarkibidan shakllantiriladi.

6. Qo‘mita tarkibi Qo‘mita raisi va a‘zolaridan iborat bo‘ladi.


7. Qo‘mita a‘zolarining soni kamida 3 (uch) kishini tashkil etishi lozim.

8. Qo‘mitaga Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolari orasidan saylangan Kuzatuv kengashi a‘zosi rahbarlik qiladi.

Qo‘mitaning kamida bitta a‘zosi barqaror moliya yoki korporativ barqarorlik sohasida tegishli bilim, tajriba yoki malakaga ega bo‘lishi kerak.

9. Qo‘mita raisi Qo‘mita faoliyatiga rahbarlik qilish va uni tashkil etish uchun mas‘ul hisoblanadi. Qo‘mita raisi vaqtincha bo‘lmaganda, uning vazifalari Qo‘mita a‘zolaridan birining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

10. Qo‘mita a‘zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash Qo‘mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.



III. Qo'mitaning asosiy vazifalari

11. Qo'mitaning asosiy vazifasi Kuzatuv kengashiga bankning rivojlanish strategiyasi (keyingi o'rinlarda – "Strategiya") hamda uning Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) / Barqarorlik strategiyasi samaradorligini nazorat qilish bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashishdan iborat.

Qo'mita bankning kundalik ishlarini boshqarishda ishtirok etmaydi.

12. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bankning biznes-profil, bank operatsiyalarining bank strategiyasi va biznes-rejasiga muvofiqligini muntazam nazorat qilib borish;

bank o'z raqobatchilaridan ustunlikka erishishni rejalashtirayotgan mahsulotlar, bitimlar, bozorlar, hududlar va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bank yutuqlarini va barqarorlik maqsadlarini muntazam baholab borish;

bankning biznes-profiliga strategiya va boshqa tegishli omillarga muvofiq kiritiladigan o'zgartirishlarning bajarilishini davriy nazorat qilish, shuningdek, kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

strategiya va biznes-rejani amalga oshirishga oid bank tomonidan har qanday davlat organiga taqdim etiladigan har qanday muhim ma'lumotni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

bankning ma'lumotlarni oshkor etish siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini nazorat qilish hamda strategiya va biznes-rejani amalga oshirish yuzasidan tegishli ma'lumotlar oshkor etilishini ta'minlash;

Qo'mita yoki Kuzatuv kengashi maqsadga muvofiq deb topgan, ushbu Nizomga, bank Ustaviga va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday boshqa faoliyatni amalga oshirish;

bankning ESG strategiyasini, shu jumladan barqaror moliya maqsadlari va uglerod izini kamaytirish maqsadlarini ko'rib chiqish, tasdiqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;

bankning Yillik barqarorlik / ESG hisoboti ishlab chiqilishi va e'lon qilinishini nazorat qilish, uning xalqaro hisobot standartlariga muvofiqligini ta'minlash.

13. Agar ushbu Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilsa yoki Kuzatuv kengashi tomonidan alohida qaror qabul qilinsa, Qo'mita Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni ham dastlabki tarzda o'rganib chiqishi va ko'rib chiqishi mumkin.

14. Kuzatuv kengashi Qo'mita tomonidan oldindan ishlab chiqilgan masalalar bo'yicha qarorlarni faqat Qo'mitaning Kuzatuv kengashining tegishli qarori loyihasi shaklida tayyorlangan takliflari asosida va doirasida qabul qiladi.

Kuzatuv kengashi Qo'mita tomonidan tegishli taklifni takroran ishlab chiqishni tashabbus qilish uchun Qo'mita taklifini rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorini Qo'mitaga taqdim etadi.

IV. Qo'mitaning huquqlari

15. Qo'mita quyidagi huquqlarga ega:

Kuzatuv kengashiga o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

Kuzatuv kengashi yig'ilishlari kun tartibiga masalalar kiritishni tashabbus qilish;

o'z vazifalari va vakolatlari doirasida Boshqaruvga, Boshqaruvning kollegial organlariga va bankning mustaqil tarkibiy bo'linmalariga maslahatlar berish;

o'z vakolati doirasida bank tarkibiy bo'linmalarining hisobotlarini tinglash hamda hisobotlar asosida ko'riladigan choralar yuzasidan Kuzatuv kengashi va Boshqaruvga takliflar kiritish;

o'z vakolati doirasida bankning Boshqaruv va nazorat organlari bilan qo'shma yig'ilishlar o'tkazishni tashabbus qilish va ularda ishtirok etish;

huquqiy masalalar hamda bankning Strategiyasi va biznes-rejasini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha professional maslahatlar olish.

V. Qo'mita raisi va a'zolarining huquq va majburiyatlari

16. Qo'mita raisi va a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bankning har qanday ma'lumot va hujjatlarini so'rab olish; hujjatlarning nusxalarini olish. Bunday ma'lumot va hujjatlar Kuzatuv kengashi a'zolariga, bank Qo'mita kotibi orqali Boshqaruv raisiga yo'llangan yozma so'rovni olgach, besh (5) ish kuni ichida, navbatdan tashqari yig'ilishlar uchun esa ikki (2) ish kuni ichida taqdim etiladi;

Qo'mita vakolatiga kiradigan bank faoliyatining ayrim masalalari yuzasidan Boshqaruv va bankning mansabdor shaxslari hisobotlarini tinglash;

bankning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomga muvofiq Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish tashabbusi bilan chiqish;

o'z yig'ilishlariga bank Boshqaruv raisi va a'zolarini, bankning boshqa mansabdor shaxslarini, mustaqil maslahatchilarni taklif qilish.

17. Qo'mita raisi va a'zolari quyidagilarga majburdirlar:

bank manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlari doirasida halol va oqilona harakat qilish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, bank Ustaviga, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga, ushbu Nizomga, Kuzatuv kengashi qarorlariga va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda harakat qilish;

bankning yuqori boshqaruv organi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarish;

barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq, bankning strategik qarorlari uning manfaatdor tomonlariga, jumladan, atrof-muhit, xodimlar, mijozlar va mahalliy hamjamiyatlarga uzoq muddatli ta'sirini hisobga olish;


Qo'mita ishida shaxsan yoki masofaviy tarzda ishtirok etish;

Qo'mita majlislarida ishtirok etish imkoniyati mavjud emasligi to'g'risida, qatnasha olmaslik sabablarini ko'rsatgan holda, Qo'mita kotibini oldindan xabardor qilish;

bankda manfaatlar to'qnashuviga oid belgilangan qoidalar va tartib-taomillarga rioya qilish. O'z vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiladigan holatlar to'g'risida Qo'mita raisini, Kuzatuv kengashi raisini va Qo'mita kotibini zudlik bilan xabardor qilish. Mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oldindan oshkor etish;

bankning axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish. Ular Qo'mita a'zosi vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan cheklangan, shu jumladan maxfiy ma'lumotlarni (keyingi o'rinlarda – "cheklangan ma'lumotlar") bunday ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga oshkor etmasligi, shuningdek, ulardan o'z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab foydalanmasligi shart. Foydalanish cheklangan ma'lumotlar ro'yxati bankning ichki qoidalari bilan belgilanadi va bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolarining e'tiboriga yetkaziladi;

Qo'mita vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashiga to'liq va aniq ma'lumotlarni taqdim etish.



VI. Qo'mitaning ish tartibi

18. Qo'mita faoliyati navbatdagi yoki navbatdan tashqari majlislar shaklida tashkil etiladi. Majlislar, qoida tariqasida, bankning ro'yxatdan o'tgan manzilida yoki majlisni chaqirish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan boshqa joyda o'tkaziladi.

19. Qo'mita majlisi quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovoz berish uchun Qo'mita a'zolarining belgilangan joyda birgalikda ishtirok etish (keyingi o'rinlarda – "birgalikda ishtirok etish shakli");

Qo'mita a'zolari birgalikda ishtirok etish shaklida o'tkaziladigan Qo'mita majlisida masofaviy aloqa kanali orqali (masalan, konferensiya aloqa, videokonferensiya aloqa) qatnashishlari mumkin;

byulletenlar orqali sirtidan ovoz berish (keyingi o'rinlarda – sirtidan ovoz berish shakli) mumkin.

20. Qo'mitaning navbatdagi majlislari zaruratga qarab, lekin har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Bunda yilda kamida bitta majlis asosan bankning ESG faoliyati (samaradorligi) va barqarorlik bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqishga bag'ishlanishi lozim.

21. Qo'mitaning navbatdan tashqari majlislari Qo'mita raisi tomonidan chaqiriladi.

22. Qo'mitaning navbatdan tashqari majlislari zarur hollarda Qo'mita raisi tomonidan o'z tashabbusiga ko'ra va quyidagilarning talabiga binoan chaqiriladi:

Qo'mita a'zolarining;

Kuzatuv kengashining Qo'mita tarkibiga kirmaydigan raisi va a'zolarining;

Boshqaruv raisi yoki a'zolarining;

bank aksiyadorlarining;

bank Ustavida nazarda tutilgan va Qo'mita majlisida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning.

23. Qo'mita raisi yo'qligida, majlisga lavozimi bo'yicha katta, lavozimlari teng bo'lgan taqdirda esa, yoshi kattaroq a'zo raislik qiladi.

24. Qo'mitaning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnoma yozma va/yoki elektron shaklda rasmiylashtirilib, Qo'mita kotibi orqali Qo'mita raisiga taqdim etiladi.

25. Qo'mita yig'ilishlarining kun tartibi Qo'mita kotibi tomonidan Qo'mitaga ko'rib chiqish uchun kelib tushgan materiallar hamda Qo'mita raisining topshiriqlari asosida tuziladi.

26. Qo'mitaning navbatdagi yoki navbatdan tashqari yig'ilishi chaqirilishi to'g'risida Qo'mitaning har bir a'zosi elektron pochta orqali quyidagicha xabardor qilinadi:

navbatdagi yig'ilishlar haqida — yig'ilish sanasidan kamida 3 ish kun oldin;

navbatdan tashqari yig'ilishlar haqida esa — yig'ilish sanasidan kamida 1 ish kun oldin.

27. Qo'mitaning bevosita ishtirok etish shaklidagi yig'ilishlari, agar ularda a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa, vakolatli hisoblanadi va ulardan biri Qo'mita raisi bo'lishi shart. Qo'mita a'zolari yig'ilishlarda faqat shaxsan ishtirok etishlari mumkin; Qo'mita yig'ilishlarida ishtirok etish huquqini boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

28. Qo'mita qarorlari yig'ilishda ishtirok etayotgan Qo'mita a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Qo'mitaning har bir a'zosi bir ovozga ega. Qo'mita a'zolari kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha "roziman", "qarshiman", "betarafman" deb ovoz berishi mumkin. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Qo'mita raisi hal qiluvchi ovoz

huquqiga ega bo'ladi.

29. Qo'mita raisi yoki a'zolarining so'roviga ko'ra Qo'mita yig'ilishiga boshqa shaxslar, ya'ni Boshqaruv a'zolari, tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tashqi maslahatchilar ovoz berish huquqisiz taklif etilishi mumkin.

VII. Qo'mita raisi va a'zolarining majburiyatlari

30. Qo'mita raisi Qo'mita faoliyati va uning qarorlari ijrosi uchun Kuzatuv kengashi oldida shaxsan javobgar bo'ladi. Qo'mita raisi Kuzatuv kengashining talabiga binoan Qo'mita faoliyati to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

31. Qo'mita a'zolari o'z vakolatlari doirasida bank faoliyati uchun javobgardir.

32. Bankka zarar yetkazgan qaror uchun ovoz berishda qatnashmagan yoki unga qarshi ovoz bergan Qo'mita a'zolari javobgarlikka tortilmaydi.

VIII. Maxfiylik

33. Qo'mita a'zosiga o'z vazifalarini bajarish vaqtida ma'lum bo'lgan har qanday ma'lumot maxfiy hisoblanadi

Mazkur maxfiy ma'lumotlarni Qo'mita a'zosi sifatidagi vakolatlari tugaganidan so'ng oshkor etilishi mumkin emas. Qo'mita a'zolari barcha maxfiy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq foydalanishi shart.

IX. Yakuniy qoidalar

34. Mazkur Nizom Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

35. Qo'mita ushbu Nizom bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmasliklari, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

bank xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli faktlar va dalillar aniqlangan taqdirda ular haqida Komplayens nazorati departamentiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bankning maxsus aloqa kanallari orqali zudlik bilan xabar berishi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek, uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qilishi;

huquqbuzarlik, jinoyat yoki manfaatlar to'qnashuvi alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar berishi lozim.

36. Ushbu hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.


37. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar Qo'mita raisi va uning a'zolari tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Kiritildi:

Korporativ boshqaruv xizmati
bosh menejeri



Sh. Maxammadov



Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti
direktori



J.Yusupov

Risk menejment departamenti
direktori



K.Karimov

Lingvist



D.Muxammadiyev

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S.Raxmatullayev